DIOSPYROS KAKI - SHARQ XURMOSI TARQALISH AREALI VA MORFOBIOLOGIK XUSUSIYATLARI

B.N. Ergashev
Toshkent Davlat Agrar Universiteti magistranti

Qabul qilindi: 14.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 15.10.2025
Tasdiqlandi: 16.10.2025

Kalit so‘zlar:
sharq xurmosi, daraxt, meva, ko’paytirish, istiqbolli turlar, ekish va yetishtirish, subtropik, onalik va otalik gullari.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mevali va dorivor o‘simliklarni yetishtirish ularni assortimentini yaxshilash bo‘lib, Sharq xurmosi-respublikamizda yangi, istiqbolli subtropik mevali daraxt sifatida keng tarqalgan. Xurmo mevalari serhosilligi qimmatli ozuqaviy xususiyatlari, dorivorlik xossalariga ko‘ra alohida ajralib turadi. Sharq xurmosi yovvoyi holda Markaziy Xitoyda dengiz sathidan 900-1200 m balandliklardagi tog‘larda tarqalgan. Diospyros turkumi turlaridan Diospyros kaki – O‘zbekiston mevachiligi uchun yangi istiqbolli tur hisoblanadi. Keyingi yillarda xurmo daraxtini ekish va yetishtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqa. Diospyros turkumini istiqbolli turlarini ko‘paytirish va plantatsiyalarini tashkil qilish haqida ma’lumotlar keltirilb o’tilgan.

Kirish. O‘zbekiston dendroflorasida oziq-ovqat va farmasevtika ahamiyatiga ega bo‘lgan daraxt-butalar talaygina, ularga do‘lana, nonjiyda, yong‘oq, bodom, xandon pista, tog‘jumrut, xurmo, oq qayin, na’matak, zirk, chakanda, irg‘ay kabilar kiradi.

O‘rmon o‘simliklari nafaqat xom ashyo va turli dorivor mahsulotlar manbai, balki tabiiy muhitni yaxshilovchi asosiy omillardan biridir.

Keyingi yillarda o‘rmon xo‘jaligi sistemasida mevalar, rezavor mevalar, yong‘oq mevalar va ular ososida ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga e’tibor kuchaydi. Ular iqtisodiy samarali tadbirlar hisoblanadi. Ayniqsa mevali va dorivor o‘simliklarni yetishtirish ularni assortimentini yaxshilash bilan bog‘liq kechmoqda. Sharq xurmosi-respublikamizda yangi, istiqbolli subtropik mevali daraxt sifatida keng tarqalmoqda. Xurmo mevalari serhosilligi qimmatli ozuqaviy xususiyatlari, dorivorlik xossalariga ko‘ra alohida ajralib turadi. Sharq xurmosi yovvoyi

holda Markaziy Xitoyda dengiz sathidan 900-1200 m balandliklardagi tog‘larda tarqalgan. Xitoyda ko‘p ekiladi, u sharq va Kavkaz xurmolari orasidagi duragaylar bo‘lib madaniy navlar sifatida keng tarqalib ketgan. Sharq xurmosi subtropik yoki Yapon xurmosi nomi bilan ham mashhurdir. Xurmo turlari diospirosdoshlar (Ebenaceae) oilasi xurmo turkumi (Diospyros) ga kiradi.

Yevropaga xurmo XVIII asrda avval Fransiyaga, keyinroq barcha O‘rta yer mamlakatlariga tarqaldi. Hozirgi paytda xurmo Yer sharining barcha subtropik zonalarida o‘stirilmoqda. Butun dunyoda xurmoning nomlari ham turlichadir. Xitoyda-shitoye (eng zo‘r meva) Yaponiyada-kaki, Angliyada oriyental persimon, Fransiyada plyak-mino, Germaniyada dattel-pflyame, Italiyada-loto del Jiappons deb ataladi.

Yaponiyadan keltirilgan 13 sharq xurmosi navi 1889 yilda Gruziyada Suxumi shahridagi bog‘dorchilik xo‘jaligida ekilgan. Bu joydan sharq xurmosi butun Kavkaz bo‘ylab tarqaldi. O‘rta Osiyoda sharq xurmosi ba’zi xavaskorlar tomonidan 1910-1914 yillarda Ashxabod, Samarqand, Farg‘ona va boshqa shaharlarda ekilgan. O‘rta Osiyoga introduksiya qilish ishlarini Butunittifoq quruq subtropik o‘simliklar ilmiy-tadqiqot instituti boshlab berdi.

Diospirosdoshlar oilasiga 100 ga yaqin turlar kiritilgan, ularning ko‘pchiligi doim yashil daraxtlar bo‘lib, tropik zonalardagi nam tropik o‘rmonlarda keng tarqalgan. MDH subtropik mevachiligida Diospyros turkumining 3 turidan foydalaniladi:

1. Sharq xurmosi-Diospyros kaki.
2. Kavkaz xurmosi-Diospyros lotus.
3. Virgin xurmosi-Diospyros virginiana.

Bu xurmoning uchta turi ham Diospyros arealini shimoliy chegaralarida tabiiy tarqalgan bo‘lib, u yoki bu darajada tropik, gigrofit belgilarni saqlab qolganlar.

Sharq xurmosi – Diospyros kaki balandligi 6-8, ba’zan 12 metrgacha yetadigan sharsimon, piramida shox-shabbasiga ega bargini to‘kuvchi daraxtdir. Tanasi po‘stlog‘i va ko‘p yillik novdalarini rangi to‘q kulrang, silliq, kesmalari mavjud. Kurtaklari konussimon, barg bandi 1 sm keladi.

Barg plastinkasi qalin po‘stli, tuxumsimon, cho‘ziq tuxumsimon yoki lansetsimon, tubi yumaloq yoki tor, uchi ham tor bo‘lib, bo‘yi 5-15 sm, eni 2,5-6 sm keladi.

Yuz tomoni tuksiz, yaltiroq, to‘q yashil, orqa tomoni tuksiz yokitukli yashil zangori. Kosacha barglari tuxumsimon, lansetsimon, tukli va cheti kiprikli.

Gultojisi oq, sariq, gulbarglari tuxumsimon, uchi to‘mtoq bo‘ladi. Mevasi olmaga o‘xshaydi, mevasi qizil yoki sariq bo‘ladi.

Diospyros kaki turida onalik va otalik gullari ba’zan turli daraxtlarda, ba’zan bir daraxtning o‘zida joylashgan bo‘ladi.vXurmo mevasi – yirik etli shirin, dumaloq, ba’zan biroz ezilgan bo‘lib, og‘irligi 100-300 g bo‘ladi (500 g li mevalari ham qayd etilgan). Mevasi po‘stlog‘i och-sariqdan toki to‘q-jigarranggacha ko‘rinishda bo‘ladi.vMevasi to‘liq pishib yetilganda to‘q-jigarrang bo‘lib, meva eti yumshoq, suvli bo‘ladi. Mevasida turli o‘lchamdagi va shakldagi 8-10 dona urug‘lar bo‘lib, xromosomalar soni 2n-90 ga teng. Ba’zan urug‘siz qimmatli shakllari mavjuddir.

Diospyros turkumi turlaridan Diospyros kaki – O‘zbekiston mevachiligi uchun yangi istiqbolli tur hisoblanadi. Keyingi yillarda xurmo daraxtini ekish va yetishtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqa. Ushbu tur tez hosilga kirish, serhosilligi va zararkunanda va kasalliklardan kasallanmasligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston hududi Yevroosiyo kontinenti ichkarisida joylashgan, yani yer sharining qurg‘oqchil zonasini egallagan bo‘lib, murakkab relefga egadir: bepoyon kengliklar, baland tog‘ tizmalari bilan to‘silgan. Diospyros turkumini istiqbolli turlarini ko‘paytirish va plantatsiyalarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Tashmatov M.T. Ekonimicheskaya effektivnost plodovix porod i sortov v Uzbekiskoy SSR-Tashkent: FAN 1974.

2. Jivotinskaya S.M. Vostochnaya xurma v Uzbekistane Tashkent – Mexnat, 1989-150 s.

3. Jivotinskaya S.M. Vostochnaya xurma – novaya kultura Uzbekistane. I informatsionniy listok SredazINTI. Tashkent. 1964.

4. Morettini A.D. Diospyros kaki. Jtalia, agr. 9 1973.

5. Kajiura J. Kaki culture in Japan the persimmon. The Orchardist of. z. 53.3. 1980.